

O'QITISHDA RAQAMLI VOSITALAR - RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Tog'ayeva Muazzam

Qarshi davlat universiteti Pedagogika

fakulteti Texnologik talim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15836453>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida raqamli vositalarning, xususan, raqamli ta'lim platformalarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli ta'lim platformalari yordamida o'qitish jarayonining interaktivligi, moslashuvchanligi va samaradorligi ortib borayotganligi ilmiy asosda bayon etiladi. Maqolada turli raqamli platformalarning afzalliklari, ular orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari va o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi o'zgarishlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha ilg'or tajribalar va ularning natijalari o'rganiladi. Maqola so'ngida raqamli ta'lim vositalarining muvaffaqiyatli qo'llanishiga doir taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim, o'quv platformalari, interaktiv o'qitish, masofaviy ta'lim, texnologik vositalar, zamonaviy ta'lim, raqamli pedagogika.

Kirish.

XXI asrda ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy ta'lim usullarining o'rnini bosayotgan raqamli vositalar nafaqat bilim berish uslubini, balki o'quvchi-o'qituvchi munosabatini ham tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli ta'lim platformalari orqali ta'lim olish imkoniyati kengaymoqda, bu esa o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Asosiy qism.

Raqamli ta'lim vositalari tushunchasi.

Raqamli ta'lim vositalari – bu elektron qurilmalar, internet resurslari, multimedia ilovalari, masofaviy platformalar va boshqa raqamli texnologiyalar orqali ta'limni samarali tashkil qilish imkonini beruvchi vositalardir. Ushbu vositalar yordamida o'quv materiallarini vizual va interaktiv shaklda taqdim etish mumkin.

Mashhur raqamli ta'lim platformalari

Bugungi kunda dunyo bo'yicha keng tarqalgan raqamli ta'lim platformalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- Google Classroom – interaktiv darslar tashkil qilish va baholash uchun qulay tizim.
- Moodle – ochiq kodli ta'lim platformasi, ko'p tilli interfeys va kurs modullari bilan mashhur.
- Zoom, Microsoft Teams – videoaloqa orqali masofaviy darslarni tashkil qilish vositalari.
- Khan Academy, Coursera, Udemy – mustaqil ta'lim uchun mo'ljallangan xalqaro onlayn platformalar.

Raqamli platformalarning samaradorligi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalardan foydalangan holda olib borilgan ta'lim:

- o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi,

- ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi,
- ta'lim jarayonini moslashuvchan qiladi (xohlagan vaqtda, xohlagan joyda o'qish),
- o'qituvchilarga statistik ma'lumotlar asosida baholash va tahlil qilish imkonini beradi.

Muammolar va yechimlar.

Raqamli vositalarni ta'limga joriy qilishda ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud:

• barcha o'quvchilarda zarur texnik vositalarning yo'qligi-Ayrim o'quvchilar va o'qituvchilar zamonaviy qurilmalarga ega emas, bu esa raqamli ta'limdan to'laqonli foydalanishga to'sqinlik qiladi.

• Internet infratuzilmasining yaxshi ishlamasligi-Uzoq hududlarda internet tezligi past bo'lib, onlayn darslarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- raqamli infrastrukturani rivojlantirish,
- o'qituvchilar uchun raqamli kompetensiyalar bo'yicha treninglar tashkil etish,
- ta'lim muassasalarini zamonaviy texnika bilan jihozlash

Xulosa.

Raqamli vositalar va platformalar bugungi ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ularning samarali qo'llanilishi nafaqat ta'lim sifati, balki o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini ham oshiradi. Shuning uchun, raqamli ta'lim platformalarini to'g'ri tanlash va ulardan oqilona foydalanish kelajak ta'limining asosi bo'lib qoladi.

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo'ldoshev, N. (2021). Raqamli pedagogika asoslari. Toshkent: "Ilm Ziyo" nashriyoti.
2. Rasulova, D. Sh. (2020). Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning ta'limdagi o'rni. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
3. Juraev, N. (2021). Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyot